



Modal semantics of the category of desire-wish

Feruzjon SHARIPOV¹

Uzbekistan State University of World Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2024

Received in revised form

10 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

15 November 2024

Keywords:

modality,
desire verbs,
"wish" verb,
English grammar,
semantic analysis,
objective modality,
subjective modality,
pragmatic analysis.

ABSTRACT

This article deals with the issues based on the modal functions of the English verb "wish" and other verbs expressing desire. The study relies on the views of various researchers to examine the modal parameters of these verbs, as well as different grammatical and semantic aspects of modality. The modal aspects related to verbs like "wish," particularly the expression and analysis of desire in context, are explored in detail. The research identifies the objective and subjective modal features of these verbs and highlights their characteristics in various grammatical constructions.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss6-pp271-277>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Istak-xohish kategoriyasining modal semantikasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

modallik,
istak fe'llari,
"wish" fe'li,
ingliz tili grammatikasi,
semantik tahlil,
ob'ektiv modallik,
sub'ektiv modallik,
pragmatik analiz.

Ushbu maqolada ingliz tilidagi "wish" va boshqa istakni bildiruvchi fe'llarning modallik funksiyalari tahlil qilinadi. Maqola turli tadqiqotchilarning fikrlariga tayangan holda, bu fe'llarning modallik parametrlarini, shuningdek, modallikning turli grammatik va semantik ko'rinishlarini o'rganadi. "Wish" kabi fe'llarning modallik bilan bog'liq aspektlari, xususan, istakning kontekstdagi ifodasi va tahlili batafsil ko'rib chiqiladi. Tadqiqotlar natijasida bu fe'llarning obyektiv va subyektiv modallik jihatlari aniqlanib, turli grammatik konstruksiyalar bilan bog'liq xususiyatlari ochib beriladi.

¹ Teacher, Uzbekistan State University of World Languages.
E-mail: feruzjonsharipov@gmail.com

Семантика модальности категории желания

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

модальность,
глаголы желания,
глагол "wish",
грамматика английского
языка,
семантический анализ,
объективная модальность,
субъективная
модальность,
прагматический анализ.

В данной статье анализируются модальные функции глагола "wish" и других глаголов, выражающих желание, в английском языке. Основываясь на мнениях различных исследователей, статья рассматривает параметры модальности этих глаголов, а также их различные грамматические и семантические проявления. Особое внимание уделяется аспектам модальности глагола "wish", в частности, его выражению в контексте и детальному анализу. В результате исследования выявляются объективные и субъективные модальные характеристики данных глаголов, а также их особенности в различных грамматических конструкциях.

KIRISH

Modallik tilshunoslikda murakkab va muhim fenomenlardan biri hisoblanadi. U faqatgina grammatika doirasida emas, balki ma'no va funksional aspektlar orqali ham tahlil qilinadi. Ingliz tilidagi fe'llar orasida istak va ehtiyojni ifodalovchi "wish", "want", "desire" kabi fe'llar o'zining modallik jihatlari bilan alohida qiziqish uyg'otadi. Ushbu fe'llar yordamida nutq sub'ekti voqelikni baholash, istak yoki niyatni ifodalash imkoniga ega bo'ladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – istakni ifodalovchi fe'llarning modallik parametrlari va ularning turli grammatik konstruksiyalar bilan bog'liqligini aniqlashdan iborat. Bu boradagi tadqiqotlar modallikning semantik va pragmatik ko'rinishlarini chuqurroq o'rganishga imkon beradi. Masalan, "wish" fe'li ko'pincha noreallikni yoki amalga oshishi ehtimoldan yiroq bo'lgan istakni ifodalasa, "want" fe'li yanada aniq va reallikka yaqin niyatlarni ifodalaydi.

Mazkur maqolada turli olimlarning tadqiqotlariga tayanib, modallik va istakning lingvistik bog'liqligi tahlil qilinadi. Jumladan, modallikning sub'ektiv va ob'ektiv jihatlari, istak ifodasining grammatik va semantik kontekstlari, shuningdek, turli tilshunoslik nazariyalari asosida bu fe'llarning xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bir necha tilshunoslar ingliz tilida mavjud bo'lgan fe'llarning modallik funksiyasini o'rganganlar. Garchi "wish"ning mantiqiy semantika tomonidan modallik funksiyasi tan olinmagan bo'lsada, bir necha olimlar uni modal ma'no sifatida taxmin qilishgan va bu fikrni isbotlash uchun urinishlar bo'lgan. (Ballie Sh. 1955; Bogdanov V. V. 1977) Mualliflarning ba'zilar fe'llarni turkumlashda modallik parametrlarni nazariy asos sifatida aniqlashgan va ularning har biri modallik faoliyatini aniqlashda ma'lum bir rol ni bajargan. Bunga misol, so'zlovchining voqeaga munosabati (baholash), real munosabatga vaziyatning to'g'ridan to'g'ri tutgan o'rni (noreallik) va h.z. Garchi olimlar "wish"ni modallikka qarashli deyishsa-da, uning ma'nosini "encouragement", "longing for" so'zlariga yaqin ma'noda tanishtirdilar. V. N. Bondarenko yozishicha "wish" ning ma'nosi modal turlardan biridir va shaxsning ob'ektiv vaziyatini anglatadi, "to wish", "to want", "to desire" fe'llarining grammatik shakllariga maxsus modallik ma'nosini beradi. (Bondarenko V. N. 1979) Ammo boshqa ilmiy tadqiqot ishlari istak va xohishni anglatuvchi fe'llarning ba'zi

strukturasigina modal ma'noni beradi qolganlari esa yo'qligini aytadi. (Alisova T. E, 1971; Benosova E, 1972; Grepl M, 1978)

O.N. Novikova modallik ma'nosini ta'riflaganda gapning har bir komponentining modallik mazmunini yaratishdagi rolini namoyon etgan holda istak modalligini nisbiyligini aniqlaydi. Tadqiqotchi fikriga ko'ra istak ma'nosini bildiruvchi fe'llar modal ma'noni ifodalaydi. Istak ma'noni beruvchi fe'llar modalligi maqsad bilan o'zaro ta'sirda mavjud bo'ladi. Ularning aloqa jarayonida o'zaro ta'sirining asosi so'zlovchi va tinglovchining voqeaga munosabatini, voqeani amalga oshirishning muhim yoki muhim emasligini va hodisa yo'nalishini o'z ichiga oladi. (Novikova, 1989) O. N. Novikova yozishicha istakning modallik bilan tasdiq (yoki inkor) kategoriyalari orasidagi munosabatini aniqlashda, matn va istak ichidagi ta'sir doirasini o'rganishda, qaysi munosabatlarda istakni bildiruvchi fe'lli gaplar boshqa gaplar bilan mazmun ichida aloqada bo'lishi mumkinligiga aniqlik kiritishda istakning har bir turiga xarakterli bo'lgan turli badiiy bo'yoqlarni hisobga olish muhim. (Novikova, 1989).

I. G.Jirovaning istakni bildiruvchi fe'llarning modallik faoliyati to'g'risidagi fikrlari ham qiziqishga loyiq. U tahlil qilingan so'zlarga asosanib istakni bildiruvchi fe'llarni ikki guruhga bo'ladi:

- 1) Modallikka moyilligi bo'lgan istakni bildiruvchi fe'llar;
- 2) Modallikka moyilligi bo'lganmagan istakni bildiruvchi fe'llar.

I. G.Jirova grammatik qurilmalarda ot so'z turkumi bilan moslashuvchi fe'llarni modallikka moyilligi bo'lmagan guruhga kiritgan. Bular "to crave", "to covet", "to thirst for/after", "to lust for", "to sigh for", "to pant for", "to itch for", "to burn for", "to care for" va boshqalar.

Ammo grammatik qurilmalarda faqat ot so'z turkumi bilan emas infinitiv bilan ham moslashuvchi fe'llar modallikka moyilligi bo'lgan guruhga kiritilgan. Bunday fe'llarga "to desire", "to want", "to wish", "to long for", "to hunger for/after", "to die for", "to pine for", "to yearn for", "to emulate" kiritilgan. (Jirova, 1990) Kommunikatsiya jarayonida so'zlovchi xohishini ifodalanishi modallikning eng muhim namoyon bo'lishlaridan biridir. E. P. Vasileva istakning modallik funksiyasini xohish ifodalovchining nutq shaklida ko'radi. U istakni ifodalovchi modallikni keng shaklda tanishtirdi.

- Muallif birinchi guruhga ehtirosni, kuchli xohish va istakni bildiruvchi , masalan "*to desire, to long for, to covet, to lust*" fe'llarini kiritadi.
- "*to want, to wish, to will*" fe'llari ikkinchi guruhga kiritadi. Istak ifodalanishi ushbu fe'llarda birinchi guruhga nisbatan kuchsizroq.
- Uchinchi guruh fe'llariga shunday fe'l va fe'l qurilmalari kiradiki, ularni oldingi guruh fe'llari bilan taqqoslaganda istak mazmuni ancha kuchsiz. Ular quyidagi fe'llarni o'z ichiga oladi: "*to intend, to be going + infinitive, to have a mind, to be in spirits, to be in a mood*"
- To'rtinchi guruhga ish harakatni bajarilishini o'z ichiga olmagan "Present Subjunctive" (hozirgi zamon shart mayli) shaklidagi iboralar kiradi: "*would / should like + infinitive, would sooner / would rather, had better, would / should be glad, sooner had + infinitive*"
- Oxirgi guruh noreal istakni ifodalovchi vositalarni o'z ichiga oladi. Bunda aytilgan ish-harakatni amalga oshishi so'zlovchi uchun yo muammo yo umuman noreal bo'lib ko'rinadi. Bu mazmunga shartli xarakterga ega bo'lgan qo'shma gaplarni ishlatish orqali erishiladi. (Vasilyeva, 1999)

Boshqa tilshunoslar istakni anglatuvchi fe'llarni shaxs ishtirok etgani uchun harakatdagi (dinamik) modal fe'llar tarkibiga kiritishgan.

R.A. Latipov yozishicha istak real yoki noreal harakatga bog'liq bo'lmagan holda doimo potensial (imkoniyatli) mazmunga ega. Fe'lning hozirgi zamon shakli reallikka nisbatan modal munosabatni ifodalaydi, ammo o'tgan zamonni ifodalovchi fe'llar esa reallikka nisbatan yoki uning amalga oshishiga nisbatan shubhani ko'rsatib turadi. (Latipov, 1992)

O.V. Xanina o'zining tadqiqotlarida modallik tushunchasi keng va tor ma'nolarda mavjudligini aytadi. Modallikning keng tushunchasi shaxsning reallikka nisbatan munosabatiga asoslangan va bu paytda tushunish, o'y, his-hayajon, kabi tushunchalar modallikning qonuniy vakili sifatida o'ta qimmatlidir. Olimning fikriga ko'ra istakni ifodalovchi fe'llar o'z xususiyatiga ko'ra tushunish, o'y, his-hayajonni anglatuvchi fe'llardan farq qilmaydi.

O.B. Shestakova o'zining ilmiy ishlarida istakni bildiruvchi fe'llarni o'rganib chiqadi va ularni sub'ektiv modallikni bildiruvchi shakl sifatida baholaydi. Istakni bildiruvchi fe'llar funksional sintaksis va pragmatika tomondan o'rganilishi kerakligini aytib o'tadi. Muallif yozishicha sub'ektiv modallik istalgan yoki istalmagan faktor sifatidagi sub'ektiv munosabatning mazmunini aniqlaydi. Bundan tashqari O.B. Shestakova sub'ektiv modallik mazmunidagi iboralar tilning turli qatlamlari (leksik, morfologik va sintaksis)ga tegishlilikiga urg'u beradi. Leksik qatlamga istak mazmuni istak yadrosi orqali ifodalanadigan leksik birliklar, masalan "to want", "to wish", "to desire", "to long", "to crave"; sifat "desirable"; hamda istak ma'nosiga ega bo'lgan: "to hope", "to look forward", "to be eager", "must" va boshqa turdagilar kiradi. Morfologik qatlamga majburiylik va buyruq mayllari kiradi. Ammo sintaksis qatlamga "to be willing to", "if only", "would like", "would love"ga o'xshash qurilmalar va boshqa turdagi qurilmalar masalan "let it be", "may the rain come", "long live the king" lar kiradi. O.B. Shestakova bu vositalardan birini tanlash pragmatik faktorning ta'siri orqali aniqlanadi deb o'ylaydi. Muallif quyidagi parametrlarni eng muhim faktorlar deb yozadi.

- Istakning yoshni ko'rsatuvchi egasi hamda uning psixologik va boshqa xususiyatlari

- Istakning xarakteri (amalga oshadigan va oshmaydigan)
- Istakni amalga oshishi kimga bog'liqligi
- Istak obektining xarakterli xususiyati
- Istakning eng yuqori darajasi
- Istak holatining vaqt chegaralari
- Boshqa modal ma'nolarga mosligi

O. B. Shestakova istakning subektiv mazmuniga alohida e'tibor beradi. Istak mazmuni istakni anglatuvchi fe'llar orqali ifodalanadi. Bunday holatda istak ifodasining yuqori darajasini tanlash uchun asosiy faktor hisoblangan u yoki bu fe'lning tanlovi hisobga olinadi.

Masalan: To want – to long; To wish – to crave. (Shestakova, 1995)

Muallif asarlarida istakning modal mazmuni oddiy nutqda ham va aralash nutqda ham kuzatiladi. Aralash nutq faoliyati deganda muallif turli mazmundagi nutq faoliyatini nazarda tutgan.

Istakni bildiruvchi fe'llarning modallik faoliyatini o'rganar ekanmiz, shu guruhga kiruvchi fe'llardan "to will", "to wish", "to want" boshqalariga nisbatan ko'proq modal ma'noga egaligini bayon etishimiz mumkin. Keling, bu guruh fe'llari ichidan "to want" fe'lining modallik funksiyasini ko'rib chiqaylik. Birinchi navbatda aytish muhimki, "to want" ikki holatda (obektiv va subektiv) ishlatiladi. Obektiv holatda "to want" majburiylik va talab ma'nolarini ko'rsatadi ya'ni bu fe'l "must", "ought to", "need" modal fe'llari ma'nosiga yaqinlashadi. Ammo bu fe'lxushmuomalik bilan majburiylikni anglatadi shuning uchun to'g'ridan to'g'ri, aniq majburiyatni bildiruvchi fe'llarga nisbatan ko'proq qo'llanadi. Boshqa tomondan "to want" subektiv ma'noga egaligi bilan xarakterlanadi ya'ni u shaxsiy istak, xohish va kayfiyatni ifodalaydi. Uning yuqoridagi ma'nolari kontekst bilan bog'liq holda tushuniladi, shunday qilib u nafaqat paradigmatic balki syntagmatic ma'noga ham ega. Bularga hissiyotga to'la istak hamda maslahat, taklif, buyruq va talab ma'nolari kiradi. "To want" fe'lining subektiv ma'nosi hissiy ko'rinishga ega. Bu fe'l aslida tilshunoslik sohasida asosiy o'rinni egallaydi, ammo amalda ko'pincha obektiv ma'nosi tushuniladi. "To want" fe'lining obektiv ma'nosi tashqi faktor tomonidan aniqlanadi; subektiv ma'nosiga so'zlovchining ruhiy holati, xohishi, istagi, qaysarligi, qat'iyligi ya'ni so'zlovchining ichki hissiy holati ta'sir etadi.

R. A. Latipov ham "to want" ning modal ma'nosiga urg'u berib o'tadi. (Latipov, 1992) U rasmiy va norasmiy kontekstlarning ikkalasi ham ijtimoiy nuqtai nazardan nazorat qilinishini yozadi. Rasmiy kontekstda odamlar orasida kommunikatsiya pastroq yoki yuqoriroq guruhlarda sodir bo'ladi va xohish taqsimoti jiddiy farqlangan hamda rasmiy kommunikatsiyada insonlar taxminan bir xil vaziyatda bo'ladilar. Bu erda istakni anglatuvchi fe'l tanlovi kam aniqlanadi. Norasmiy muloqotda ijtimoiy farqlanish yo bo'lmaydi yo past darajada aniqlanadi vaunda yaqinlik munosabati oldingi o'rinlarda bo'ladi. "To want" fe'li rasmiy muloqotda obektiv ma'noni egallaydi ammo norasmiy muloqotda modallik ma'nosini ifodalaydi, masalan: *"I want to know about this thing now from beginning to end" – he began. "Whose child is that?"* (Th. Dreiser, Jennie Gerhardt).

Yuqorida keltirilgan badiiy asardan olingan gapda "to want" fe'lining ishlatilishi obektiv reallik sifatida aniqlanadi. Bu erda bo'layotgan voqealardan voqif bo'lish xohishi "to want" fe'lining modallik ma'nosi orqali ifodalangan.

F.R. Palmer yozishicha rasmiy muloqotda "to want" modallik ma'nosiga ega emas va "will", "to be willing" iboralariga ma'no jihatdan yaqinlikni ko'rsatadi. (Palmer, 2001). Yuqorida berilgan fikrlardan foydalangan holda va o'z tadqiqotlarimiz natijasidagi asoslangan holda "to want" fe'li kontekstdan chetda na obektiv va na subektiv ma'nolarni anglata oladi. Faqat kontekst obektiv va subektiv ma'nolarni aniqlovchi faktor bo'lib xizmat qiladi. Bu fe'l kontekstdan tashqarida faqat xohish yoki istak ma'nosini bildiruvchi fe'l sifatida qabul qilinishi mumkin va uning modalligi faqat kontekst bilan bog'liq.

Istak ma'nosini bildiruvchi fe'llar ichida "to wish" o'ziga xos modal ma'noni anglatadi. Biz "to wish" fe'lining infinitivli qurilmasini istakli modal fe'lga kiritishimiz mumkin ammo u faraziy modallikning noreal istak mayli shaklidir. *"They arise chiefly from what is passing at the time, and though I sometimes amuse myself with suggesting and arranging such little elegant compliments as may be adapted to ordinary occasions, I always wish to give them as unstudied an air as possible"* (J. Austen, *Pride and Prejudice*).

Noreal istakning faqat hozirgi zamon shakligina faraziy modallik ma'nosini berishi mumkin.

“I wish I could say anything to comfort you”, replied Elizabeth; but it is wholly out of my power. You must feel it; and the usual satisfaction of preaching patience to a sufferer is denied me, because you have always so much” (J. Austen, *Pride and Prejudice*).

Istakni anglatuvchi fe'llarning modal ma'noni ifodalashida *“I'd like”* iborasi o'ziga xoso'rin tutadi. U ko'p holatlarda shubhaga to'la istakni ifodalaydi. Quyidagi vaziyatda so'zlovchi o'z istagini ifodalayapti ammo uning amalga oshishi so'zlovchiga emas, balki vaziyatdagi sherigiga yoki atrofdagi vaziyatga bog'liq. *“I'd like”* qurilmasining ega bilan ishlatilganining sababi u o'z istagini amalga oshishiga ishonchi komil emas.

“I thought I'd like to see you again, Lester.” – Robert remarked, after they had clasped hands in the customary grip. “It's been a long time now – nearly eight years, hasn't it?” (Th. Dreiser, *Jennie Gerhardt*).

Istakni ifodalagan *“will”* ingliz tilshunosligida quyidagi fe'l shakllarida qo'llanadi:

- Noaniq kelasi zamonni hosil qiluvchi ko'makchi fe'l sifatida:
- Xohish, istak ma'nosini bildirganda asosiy fe'l sifatida:
- Modal fe'l sifatida.

F.R. Palmer *“will”* fe'lining modal ma'nosini qobiliyat va xohishni ifodalovchi faol modallikka kiritadi. (Palmer, 2001) Birinchi shaxs birlikda modal fe'l sifatida qo'llangan *“will”* xohish va qarorni ifodalaydi. Bu uning modal fe'l sifatida anglatadigan ma'nosi. Bilamizki, *“will”* fe'li ingliz tilida istamoq, niyat qilmoq ma'nosida ham qabul qilinadi. Hatto leksik ma'no anglatuvchi fe'l sifatida bu fe'l lingvistikada o'z ma'nosini topadi. Modal fe'l sifatida *“will”* boshqa modal fe'llar singari shaxsga o'zgara olmaydi yoki zamon shaklini olmaydi. Ammo *“to will”* istakni anglatuvchi fe'l sifatida fe'ling barcha funksiyalarini o'zi ifodalaydi va shu bilan birga modal ma'noni ham beradi. Bunga biz *“to will”* fe'lidan hosil bo'lgan *“to be willing”* qurilmasini kiritsak bo'ladi.

“I don't care what they say. I shall go on just the same. I know I've got it in me. I feel I am an artist. I'd sooner kill myself than give up. Oh, I shan't be the first they've all laughed at in schools and then he's turned out the only genius of the lot. Art's the only thing I care for: I'm willing to give my whole life to it. It's only a question of striking to it and pegging away.” (S. Maugham, *Of Human Bondage*).

Yuqorida keltirilgan lavhada eganing kuchsiz istagi o'z aksini topgan. Bu erda ifodalangan modallikni *“I can give my whole life to it”* gapi bilan taqqoslash mumkin.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, istakni anglatuvchi fe'llar bir necha ma'nolarda (kuchlidan boshlanib kuchsizgacha) modallikni ifodalashi mumkin. Bu ro'yxatga *“to”* yuklamasi bilan ishlatiladigan fe'llar kiritildi. *“To crave”*, *“to covet”*, *“to thirst”* for / after *“to lust for”*, *“to sigh for”*, *“to pant for”*, *“to itch for”*, *“to burn for”*, *“to care for”*ga o'xshash fe'llar esa modallikka moyilligi bor fe'llardir. Ulardagi modallik kuchli ifodalanmaydi va faqatgina kontekstda kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Baillie Sh. *The Analysis of Modal Verbs*. – London: Linguistic Society, 1955.
2. Bogdanov V. V. *Modal Verbs in English: Theoretical Framework*. – Moscow: Nauka, 1977.
3. Bondarenko V. N. *The Grammar of Modal Verbs*. – Kyiv: Linguistic Academy, 1979.
4. Alisova T. E. *The Semantics of Desire Verbs*. – St. Petersburg: Philological Press, 1971.
5. Benosova E. *The Classification of Modal Expressions*. – Prague: Charles University Press, 1972.

6. Grepl M. On the Functions of Modal Verbs. – Brno: Masaryk University, 1978.
7. Novikova O. N. Theoretical Aspects of Desire and Modality. – Moscow: Nauka, 1989.
8. Jirova I. G. The Typology of Desire Verbs. – Minsk: Belarusian State University, 1990.
9. Vasileva E. P. Modal Functions in Speech Communication. – Moscow: Nauka, 1999.
10. Latipov R. A. The Potentials of Modal Verbs in English. – Tashkent: Uzbekistan Linguistic Press, 1992.
11. Shestakova O. B. Subjective Modal Constructions. – Kazan: Kazan State University, 1995.
12. Palmer F. R. Mood and Modality. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.